



"NAVOIY" ROMANING INGLIZCHA TARJIMASIDA MILLIYLIKNING REALIYALAR VOSITASIDA BERILISHI

Sayyora Hamidova

OTU 1 - kurs magistranti, Qarshi, O'zbekiston.

Tel: 90 342 35 96; e-mail: seyyare.khamidova0391@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18466067>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25-yanvar 2026 yil
Ma'qullandi: 28-yanvar 2026 yil
Nashr qilindi: 31-yanvar 2026 yil

KEYWORDS

*tarixiy roman, milliy adabiyot,
xos so'z (realiya), asliyat,
tarjimon mahorati.*

ABSTRACT

O'zbek adabiyoti namunalarini xorijiy tillarga tarjima qilish bilan bir qatorda bugungi kunda tarjimalarni tanqidiy o'rganish bo'yicha ham jiddiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Turli tillar oilasiga mansub, urf-odati milliy an'analari bir-biriga uzoq o'zbek va ingliz tillari orasida amalga oshirilgan tarjimalar haqida gap borganda, vaziyat birmuncha farqli ekanligi ko'zga tashlanadi. Chunki bu ikki til orasida tarjima qilishning afzalliklari bilan bir qatorda o'ziga yarasha murakkabliklari ham bor. Ushbu maqolada ilmiy muammo atoqli o'zbek adibi Muso Toshmuhammad o'g'li Oybekning "Navoiy" romani misolida ko'rib chiqildi.

XX asr o'zbek adabiyotining yorqin namoyondasi, atoqli adib Muso Toshmuhammad o'g'li Oybekning "Navoiy" romani kitobxonlarning qalbidan chuqur joy olgan. Oybek Navoiy obrazini kitobxon to'liq tasavvur eta oladigan darajada yorqin tasvirlagan. Asar o'zining badiiy-estetik qimmatini, mazmun-mohiyati, badiiy vositalarga to'laligi, voqealarning izchilligi, tarixiy haqiqatning to'laqonli aksi bo'la olganligi, to'qima va tarixiy obrazlarning uyg'unlashganligi bilan yuksak e'tirofga loyiqdir. Romanda tarixiy voqelar, jangu-jadal tasvirlari, majlis va ziyofatlar, munozara va bahslar yuksak badiiy mahorat bilan tasvirlangan.

Asar Yevropa va bir necha sharq tillari, rus va turk tillariga, shu jumladan Toshkentda 2016 yil Ilhomjon To'xtasinov va O.M.Mo'minovlar tomonidan ingliz tiliga tarjima qilinib nashr etilgan. Shu tariqa, o'zbek adabiyotining ilk beshtalikka kiruvchi romani jahonning millionlab ingliz tilini biluvchi kitobxonlari, Oybek asarlari ixlosmandlari e'tiboriga havola qilingan. Zero, bugungi kunda o'zbek adabiyoti namunalarini badiiy tarjima orqali targ'ib qilish, asarlarda aks etgan o'zbek xalqiga xos milliy xususiyatlar, millatimizning turmush tarzi, urf-odatlarini, an'analari, madaniyatini namoyish etish dolzarb vazifalardan biriga aylangan.

Shu bilan birga, muayyan bir asarni ajnabiy tilga tarjima qilish murakkab ijodiy jarayon hisoblanadi va ushbu jarayonda asar tubdan qayta yaratiladi, deyish mumkin. Chunki asarda tarjimaga bo'ysunmaydigan jihatlar talaygina. Masalan, xos so'zlar (realiya)larni olsak, bunday so'zlar bir millatning o'zigagina tegishli unsurlarni o'zida jamlagani bois ularni boshqa tilda so'zlashuvchi, o'zga madaniyat sohibi bo'lgan kitobxoniga yetkazib berish qiyin kechishi mutaxassis va tarjimonlarga yaxshi ma'lum.

Ushbu maqolada tarjimaning aynan realiyalar bilan bog'liq murakkabliklarini o'zbek milliy va tarixiy romani – "Navoiy"ning inglizcha tarjimasi misolida imkon doirasida ochib berishga harakat qilamiz. Maqolada o'zbek tarjimonlarining asliyatdagi muqobilsiz leksika hisoblangan realiyalar inglizcha tarjimada qay yo'sinda, qaysi prinsiplar asosida qayta yaratganligini o'rganilib, xulosalar bu borada ish olib borgan olimlarning fikr-mulohazalariga tayanilgan holda chiqarishga harakat qilinadi.

Maqolani yaratishda tavsifiy, tahliliy va qiyosiy metodlardan foydalaniladi.

Adabiyotshunoslik terminlari lug'atida realiya (xos so'zlar) ga "muayyan xalq, mamlakat yoki tarixiy davrga xos bo'lgan, boshqa tillarda to'liq muqobili bo'lmagan yoki tarjimada qisman izoh talab qiladigan so'z va tushunchalardir. Ular xalqning milliy hayoti, madaniyati, urf-odati, ijtimoiy tuzumi tarixiy sharoiti bilan chambarchas bog'liq bo'ladi" deya ta'rif berilgan. Tarjima jarayonida xos so'z (realiya) larni chet tiliga o'girish mutarjim uchun mahorat, ma'lum ma'noda malaka va tajriba talab qiladi va aynan xos so'z (realiya) larning tarjimada to'g'ri berilishi asarning badiiy, milliy to'qimasini buzmasdan qayta yaratish jarayonini yengillashtiradi. Bunday holatlarda realiya va termin tushunchasini farqlay bilish kerak bo'ladi. Bu borada X. Hamidov shunday yozadi: "Terminlar boshqa leksik birliklardan farqli o'laroq muayyan bir tushuncha, predmet, hodisalar nomini ifodalab, bir ma'noli, sinonimsiz, ko'pincha o'zlashtirma so'zlardan tashkil topgan bo'ladi. Ayni paytda bunday xususiyatlar realiyalarda ham mavjud. Biroq ular o'rtasida ma'lum ma'noda farqlar ham bor. Masalan, realiyalar ekvivalentsiz leksika hisoblansada, termin kabi tarjima tilida har qanday kontekst ichida bir xilda turmaydi". [3, 180-b.]

Yevropalik tarjimashunoslardan S.Vlaxov va S.Florinlar "Realiyalar muayyan bir xalqning hayoti (turmushi, madaniyati, ijtimoiy va tarixiy taraqqiyoti) ga talluqli bo'lgan va boshqa tillarda aniq muqobiliga ega bo'lmagan o'ziga xos yondashuvni talab qiladigan so'zlar va so'z birikmalaridir" – deb ta'kidlaydilar. [9, c.343]

Har qanday badiiy asarning milliy o'zgachaligini namoyon etuvchi unsurlardan biri, hatto asosiysi xos so'z (realiya)lar bo'lib, ularning badiiy tarjimada berilishi bilan bog'liq muammolar hali fanda o'zining to'la yechimini topmagan. O'zbek va ingliz tillari kabi bir oilaga mansub bo'lmagan ikki tilning bir-biriga begonaligi, unda so'zlashadigan xalqlar madaniyati, ma'naviyati, tarixi, urf-odat va an'analari, turmush tarzi hamda mentalitetning keskin farqi bu tillardagi o'zaro tarjimani ham murakkablashtiradi. Bu ikki tilda yozilgan badiiy asar tarjimasi mutarjimdan katta mehnat, topqirlik, ustamonlik va mahorat talab etadi. Bu bilan qardosh tillar o'rtasidagi tarjima ishi oson demoqchiasmiz, albatta. Biroq, g'arb tillari va o'zbek tili o'rtasidagi farq nisbatan keskinroqdir. Bu esa xos so'z (realiya)lar ustida ish olib borish jarayonida yanada yaqqolroq namoyon bo'ladi.

"Navoiy" romani qahramonlarining ismlari, unvon va tahalluslari realiyalarning aniq misolidir: *sulton, bek, hokim, navkar, sipohiy, bekszoda, vazirzoda, mullabachcha, boyon, a'yon, darvesh, parvonachi, Haydar pahlavon, To'qli Mergan*. Asarda uchraydigan bu kabi xos so'zlarning ingliz tilidagi tarjimasi kontekstda qanday berilganligi, tarjimon ushbu jarayonda qanday yo'lni tutganligi qiziqish uyg'otishi tabiiy: "*Bu madrasada va o'zga madrasalarda bo'lgan aslzoda, sohibi davlat talabalarning va Hirotdagi bekszoda, vazirzodalarning kechki bazmlariga, yig'inchoqlariga borib, kuyi, sozi bilan o'tirishni qizitib, qornini to'ydirar edi*". [7, 5-6-bb.] Ushbu parchada *aslzoda, bekszoda, vazirzoda* kabi turli unvonlarga tegishli xos so'zlarga duch kelamiz. Gap ingliz tiliga quyidagicha tarjima qilingan: "*Thus, he started to visit parties*

organized by the rich and respected students of his madrassah and there he would both play his musical instrument and have a good meal there". [6, p.8] Keltirilgan parchaning inglizcha muqobilida "bekzoda, vazirzoda" so'zlari qatnashgan gapning qismi tarjima qilinmasdan tashlab ketilgan. "Aslzoda" so'zi esa "respected" - "hurmatga sazovor, hurmat qilinadigan" tarzida berilgan. Vaholanki "aslzoda" ko'proq "oqsuyak, oliy, asl zotli inson" ma'nosini tashiydi. "Aslzoda" so'zi inglizchada "aristocrat yoki nobleman" deb berilganda maqsadga muvofiq bo'lardi. Inglizcha tarjimada berilgan "respected" so'zini butunlay noto'g'ri deb bo'lmaydi, chunki aslzodalar hurmatga, e'tirofga sazovor oilalar vakillari bo'lishgan va albatta xalq ularga ehtirom ko'rsatgan. Shu nuqtayi nazardan qaralganda, tarjimada so'z qisman bo'lsada ochib berilgan deyish mumkin. "Bekzoda", "vazirzoda" bek va vazir oilasiga mansub shaxslarga nisbatan, ya'ni ularning farzandlariga nisbatan qo'llanilgan.

"Bek" turkiy xalqlarda hokim, hukmdor, viloyat boshlig'i, saroy arboblari nisbatan qo'llanilgan faxriy unvon bo'lib, uni unvon va taxalluslar bilan bog'liq realiyalar qatoriga kiritish mumkin. Yuqoridagi jumlada unvon sohiblarining farzandlari nazarda tutilgan. Afsuski, asarning inglizcha tarjimasida gapning "bekzoda va vazirzoda" so'zlari qatnashgan qismi tushirib qoldirilgan. Bu so'zlarning ingliz tilida muqobili yo'q tabiiyki. Tarjimon parchaning tushib qolgan bo'lagini to'liq tarjima qilib, *bekzoda, vazirzoda* so'zlariga izoh berib, ingliz tilida ushbu realiyalarning ma'nolarini ochiqib ketishi ma'qul edi. Bundan tashqari, asar qamrab olgan davrda, ya'ni XVI asr ikkinchi yarmida "bek" xo'jayiga hurmat bilan murojaat qilish yoki yosh, jasur, mard, jangovar yigitlarga qarata ishlatilgan so'zdir. Masalan, "- *Andak orom olaylik, shoyad bek yigitning o'zi ham kelib qolur, - dedi u Sultonmurodning qo'lidan tutib*". [6, 79-b] Mazkur jumlada "bek" so'zi yosh To'g'onbekka nisbatan jasur yigitga hurmat ma'nosida qo'llangan. Tarjimada "- *Let's get some rest, maybe Togonbek will come back, - he said*". [7, p.87] Gapning inglizcha tarjimasida esa "bek" kalimasi o'rniga "Togonbek" qo'llanilib, to'g'ridan to'g'ri hurmat qilinayotgan shaxsning ismi keltirilib, vaziyatdan mohirona chiqib ketilgan. Bu tarjimon mahoratining isbotidir. Sababi tarjima gapning mazmunini o'zgartirmagan, uning mohiyatiga ta'sir qilmagan.

Yana bir misol: "*Bundan tashqari, katta-kichik shaharlarda, viloyatda beklar, hokimlar bor*". [6, 7-b] Gapda "beklar, hokimlar" kabi xos so'zlar qatnashgan bo'lib, shahar va viloyatni boshqargan mansabdor shaxsga nisbatan qo'llangan va bugungi kunda ham o'zbek tilida "hokim" ayni ma'noda ishlatiladi. "*Besides, there were many beks and khakims in cities and towns who always had great desire to obtain dignity, glory and honour*". [7, p.10] Mazkur parchaning inglizcha tarjimasida beklar va hokimlar o'z holicha qoldirilib, "*Mayors of cities*" ya'ni "*shahar (lar) hokimi*" deb izoh berib ketilgan. Ma'no qamrab olingan, kitobxonga tushunarli tarzda yetkazilgan.

Bir qancha joy, makon, unvon, mansablar bilan bog'liq bo'lgan xos so'zlarga, tarixiy obrazlar (ularning kim ekanligi) ga asarning o'zida ham muallif tomonidan izohlar keltirib o'tilgan. Romanning tarixiyli asarda eskirgan, arxaik so'zlardan ko'p foydalanishni taqozo etgan. Ko'pincha *radif, ruboiy, muammo* kabi she'riy atamalarga, *dorug'ayi kutubxonayi humoyun, parvonachi, muhtasib* kabi unvon va mansab nomlariga, *tarh, qari, otabek, sarroj* kabi eskirgan so'zlarga, *g'ijjak, chang, soz* kabi musiqiy asbob nomlariga hamda bir qancha arabcha va forschadan o'zlashgan so'zlarga izoh berib ketilgan. "- *Bag'oyat bo'lumli inson, - dedi Husayn Boyqaro boshini tebratib. - Mirzoyi Kichikka ixlos bilan xizmat qilmoqda. Bizga sadoqati, himmati baland, havasim keldi. men uni parvonachi qilib olsam, degan mulohazaga keldim*". [6, 36-b]

Muallif "parvonachi" atamasiga "xonlik zamonidagi yirik mansablardan. Parvonachi ko'pincha podshoh qoshida bo'lib, farmonlarni yozib turar, ishlar haqida podshohga ma'ruza qilar edi", deya izoh berilgan. "- He is a very clever man, - said Husain Boyqaro shaking his head. - He is serving to Mirzoi Kichik very honestly. he is very honest and appreciates us very much. I like him very much. I would like to appoint him as parvonachi for me". [7, p.40] Parcha ingliz tiliga to'liq tarjima qilingan va "parvonachi" so'ziga muallif kabi bu qanday mansabligi va nima vazifani bajarganligi haqida inglizxabon kitobxonga tushunarli qilib izoh berib o'tilgan. Yuqorida aytib o'tganimizdek bu kabi atamalarga muallif tushuntirish berib ketgan va tarjimon ham muallif bergan izohlarning birortasini chetlab o'tmagan. Bundan tashqari, *Haydar Polvon, To'qli mergan* kabi ismi laqabi bilan kelgan asar qahramonlarining laqablariga ham tarjimon izoh berib o'tgan. Masalan: "*Togonbek turned around and saw Toqli mergan who was sitting among the old men. Even though Togonbek was very happy to see him he greeted him very proudly and calmly and then he sat beside him*". [6, p.25] Gapda To'qli mergan o'zbek kitobxonlari uchun izoh talab etmasa-da "mergan" so'zi laqab bo'lganligi sababli tarjimon ingliz o'quvchisi uchun tushunarli bo'lishi uchun uning izohini "*A good at shooting, sniper*", ya'ni "o'q otishda mahoratli kishi, snayper" deya bergan. Agar izoh berilmaganda laqab ism o'rnida tushunilar yoki umuman ahamiyatsiz o'tib ketilgan bo'lardi. Parchaning o'zbekchasi quyidagicha: "*To'g'onbek qayrilib, mo'ysafidlar davrasi orqasida yolg'iz o'tirgan To'qli merganga ko'zi tushdida, go'yo Xizrga yo'liqqanday, mamnun bo'lsa ham, lekin botir yigitlarga xos ulug'vorlik va g'urur bilan ko'rishdi va uning yopniga chordona qurdi*". [6, 23-b] Gapning inglizchasi biroz sayozroq, badiiy bo'yoqdan uzoqlashgan bo'lsa-da, undagi xos so'zga izoh berib o'tilgani tahsinga sazovordir.

O'zbek tilidan ingliz tiliga tarjima muammolarini ilmiy o'rganish so'nggi yillarda sezilarli darajada rivojlanmoqda. O'zbek xalqi turmush tarzi, mentaliteti, dunyoqarashi inglizlarnikidan keskin farq qilganligi sababli bu kabi asarlarni tarjima qilganimizda milliylikka xos realiyalarni tarjimasiz berish va ularga izoh berib o'tish eng maqbul yechimdir. Ushbu mavzuning atoqli o'zbek adibi Oybekning "Navoiy" romani misolida tadqiq etilishi yangilik sanalib, kelajakda ikki til oilasiga mansub tillar orasida tarjimaning chigalliklari sababini ochib berish, original asarga xos xususiyatkarining tarjimada berish masalalarini o'rganish muhim vazifalardan hisoblanadi. Shu o'rinda, tarjimashunos Q. Musayevning "*O'z-o'zidan ma'lumki, muayyan xalq turmush tarzini ifoda etadigan so'zlargina bunday tushunchalarga ega bo'lmagan xalqlar tillariga tarjimasiz, asliyatdagi shaklida o'tkaziladi, shu tariqa tarjimada muallif matnining milliy bo'yog'i adekvat talqin etiladi. Masalan, tahmon, xurjun, palov, ketmon paranji, supa kabi o'zbeklar turmush tarziga xos ifoda vositalarini bunday tushunchalarni anglatadigan lisoniy birliklarga ega bo'lmagan ingliz va rus xalqlari tillariga qilingan o'girmalarda aynan (tarjimasiz) keltirish asliyatning milliy xususiyatini saqlab qolish bilan birga, tarjima tillari lug'at tarkibi kengayishi uchun zamin yaratadi*" degan fikrlari o'rindir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Asqarova Sh. "Alpomish" dostoni inglizcha tarjimasining lingvistik xususiyatlari". Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertasiyasi avtoreferati. Toshkent, 2025.
2. Hamidov X. Turk tilshunosligi va tarjimashunoslik masalalari. Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti. Toshkent, 2026.
3. Hamidov X. "Oybekning "Navoiy" romani turkcha tarjimasida xos so'z (realiya) larning berilishi". - Scientific-methodological electronic journal "Foreign Languages in Uzbekistan", 2021, N3 (38), 180. <https://journal.fledu.uz>

4. Rasulova K. "Oybekning "Navoiy" romani tarjimalarida tabiat tasvirining qayta aks etishi". Tarjimashunoslar forumi – 2022. 245-252-bb. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7460915>
5. Salomov G'. Adabiy an'ana va badiiy tarjima. – T., Fan, 1980.
6. Oybek. "Navoiy" - Toshkent. "Yoshlar matbuoti", 2023.
7. Oybek "Navoiy". - "Yangi asr avlodi". Tashkent, 2016.
8. Musayev Q. Tarjima nazariyasi asoslari, darslik. - O'zbekiston Respublikasi FA "Fan" nashriyoti, 2005.
9. Влахов С., Флорин С., Непереводимое в переводе. - Москва: Международные отношения, 1980.

